

**.rahvag–vus , anizax–reY**

Yer – xazina, suv – gavhar.

**.nok samtib – vus-reY**

Yer-suv – bitmas kon.

### **3.Darsni yakunlash va baholash:**

Tabiat in'omi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Atrofdagilarga qanday munosabatda bo'lish kerak deb hisoblaysiz?

 **Uyga vazifa:** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Sevimli ertagingiz haqida ma'lumot tayyorlang.

### **8-mavzu: Bog'da**

**Dars maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarni "Olxo'ri va o'rik" ertagi bilan tanishtirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** tabiat in'omlari haqida ma'lumot berish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars metodi:** savol-javob, interaktiv o'yinlar

**Dars jihozi:** mevalar rasmi

**Darsning blok chizmasi:**

**1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):**


-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Mavzuga qiziqtirish: **Chizmaga mos so'zlar ayting.**





- O'tilganlarni takrorlash: "Suv va Daraxt" ertak mazmuni so'zlab beriladi.  
Sevimli ertak haqida ma'lumot aytiladi.

## **2.Asosiy qism:**

### **Amaliy topshiriq. "Mendan so'ra" mashqi.**

Partadoshingizdan quyidagi savolga qanday javob berishini bilib oling.

*Agar mevalar so'zlasha olganda, siz ular bilan nima haqida suhbatlashgan bo'lardingiz?*

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Partadoshingiz bu savolga qanday javob berdi?
2. Kimning javoblari partadoshi bilan bir xil?

**Mavzuni tushuntirish.** Darslikdagi rasm orqali suhbat uyushtiriladi.

1. Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?
2. Bog'da nimalar o'sadi?
3. Siz qanday mevalarni iste'mol qilishni yaxshi ko'rasiz?



**Matn ustida ishlash.** Mirmuxsin Mirsaidov — shoir va yozuvchi. U bolalar uchun ko'plab she'r va dostonlar, hikoyalar yaratgan. Uning „Sheralining mardligi“, „Ovchi bolalar“, „Luqmon va O'roqboy“ kabi asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Mirmuxsinning "Olxo'ri va o'rik" ertagi o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ertakda bahor fasli qanday tasvirlangan?
2. Zumrad bog'da nima qildi?
3. Nima deb o'ylaysiz pishgan mevalarni iste'mol qilishning foydasi nimada?
4. Ertakdan qanday xulosa qildingiz?

## **Lug'at ishi**

puchuq–burni yassi,  
yopishgan.

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi. Zumradga tavsif beriladi.

Zumrad- jamalak sochli, puchuqqina, ...

### “Tanlab o‘qish” mashqi.

1.Ertakdan ko‘m-ko‘k, sap-sariq, tap-tap, paq-paq so‘zlari ishtirok etgan gaplar topib o‘qiladi.

2.Dovuchcha va pishgan mevaning gaplari topib o‘qiladi.

Juftlikda darslikda berilgan topishmoqning javobi topiladi.

*Osh ichida tosh*



*Tosh ichida osh. (o‘rik)*

*Gulsiz bo‘lar mevasi,*

*Shirin – shakar donasi.(anjir)*

O‘quvchilarga qo‘shimcha tarqatma sifatida krossvord berilishi mumkin.

Rasmlı krossvordni yeching va 7-raqam ostida yashiringan meva nomini toping.



**Mashq daftari bilan ishlash.** Mevaning rasmini chiziladi

Tez aytish musobaqasi o‘tkaziladi.

Ko'm-ko'k kurtak ko'katlar

Ko'klamga ko'rk ko'rsatar.

### **3.Darsni yakunlash va baholash:**

*-Darsda nimalarni bilib oldingiz?*

*-Biz bugun darsda nimalarni bajardik?*



**Uyga vazifa:** Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Ertakdagi bog'ni rasmda tasvirlang.

## **9-mavzu: Bo'lim yuzasidan takrorlash**

### **Dars maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** "Ertaklarning sehrli olamidan bahra olamiz!" bo'limi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarda ezgulik hissini oshirish, ularni to'g'rilik va rostgo'ylikka, mardlikka o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

### **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Dars turi:** mustahkamlash darsi

**Dars metodi:** savol-javob, amaliy topshiriqlar

**Dars jihozi:** A4 formatdagi qog'oz, rangli qalamlar, ertak suratlari

### **Darsning blok chizmasi:**

#### **1.Tashkiliy qism:**

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

#### **2.Savol-javob:**

1.Bo'limdagi qaysi hikoyada nohaqlikdan charchagan uch og'ayni arazladi?

2.Ish qurollari haqida yozilgan she'r muallifi kim?